

## **Comparative Turkish Dialects and Literatures**

*Karşılaştırmalı Türk Lehçeleri ve Edebiyatları*

**Cilt/ Volume 1, Sayı / Issue 2, Kasım/ November 2022, 25-31**

**Atf/Citation:** Akbarova, M. (2022). Badiiy Matnda Uchraydigan G‘ayriodatiy Birikmalarning Lingvo-Poetik Xususiyatlari. *Comparative Turkish Dialects and Literatures*. 1 (2). 25-31.

### **BADIIY MATNDA UCHRAYDIGAN G‘AYRIODATIY BIRIKMALARNING LINGVOPOETIK XUSUSIYATLARI**

*Edebî Metinlerde Bulunan Kural Dışı Kombinasyonlarının Lingvopoetik  
Özellikleri*

**Lingvopoetics of Illegal Combinations Found in Literary Texts Properties**

**Araştırma Makalesi / Research Article**

(Makale Geliş Tarihi: 27.10.2022 / Kabul Tarihi: 23.11.2022)

**Munira AKBAROVA\***

#### **Annotatsiya**

Maqolaning muqaddimasida adabiy asar va til o‘rtasidagi munosabatga alohida urg‘u beriladi. Adabiy asarni oddiy matndan ajratib turuvchi eng muhim xususiyat uning badiiy tilidir. Adabiyot so‘z san’atidir. Adabiy asar ham barcha matnlar kabi so‘zlardan iborat bo‘ladi, lekin adabiy asarni tashkil etuvchi so‘zlar shoir yoki muallifning badiiy va estetik tushunchasini aks ettirish uchun birlashtiriladi va shu tariqa adabiy asar boshqa matnlardan ajratiladi. Har bir adabiy asar ma’lum darajada o‘zi yozilgan “til”ning estetik darajasini aks ettiradi. Badiiy matnning ma’no teranligi, badiiy saviyasi va estetik darjasasi undagi g‘ayrioddiiy ma’no birlashmalari va so‘z turkumlarining tez-tezligi bilan bir oz bog‘liq. Muallifning badiiy matnda noodatiy semantik assotsiatsiyalar va so‘z turkumlaridan foydalanishi matnni o‘quvchiga yanada jozibador qiladi. Shu bilan birga, kitobxonning tasavvur doirasini kengaytiradi, dunyoqarashini ochadi, o‘quvchini faollashtiradi. Chunki muallif hamma ishlatalidigan so‘zlarni ishlatib, nima demoqchi ekanligini aniq aytmagan; noan‘anaviy ifodalar orqasida yashiringan. Uni ochish o‘quvchining o‘ziga bog‘liq.

---

\* Öğr. Gör., Hokand Devlet Pedagoji Enstitüsü, İlköğretim Bölümü; *Lecturer, Kokand State Pedagogical Institute, Department of Primary Education,* akbarovam1989@mail.ru, ORCID ID: orcid.org/0000-0002-4837-4883.

Bunday asarni o'qigan odamning ongi butun o'qish davomida doimiy ishlamog'i kerak.

Maqlolaning davomida 20-asr o'zbek adabiyoti namoyandalari bo'lgan Said Ahmad, Tohir Malik, O'tkir Hoshimovlar ijodidan noodatiy ma'no birlashmalari va so'z turkumlariga misollar keltirilib, izohlanadi.

**Kalit so'zlar:** lingvopoetika, lingvistik poetika, badiiy matn, g'ayriodatiy birikmalar, adabiyot.

### Özet

Makalenin girişinde edebi eser ve dil ilişkisi üzerinde durulmuştur. Edebi eseri normal bir metinden ayıran en önemli özelliği, dilinin sanatlı olmasıdır. Edebiyat, söz sanatıdır. Edebi eser de bütün metinler gibi sözcüklerden oluşur fakat edebi eseri oluşturan sözcükler, şair veya yazarın sanat ve estetik anlayışını yansıtacak şekilde bir araya getirilir ve edebi eser böylece diğer metinlerden ayrılır. Her bir edebi eser belli bir ölçüde yazıldığı "dil"in estetik düzeyini yansıtır. Edebi metnin anlam derinliği, sanat seviyesi ve estetik düzeyi, biraz da içinde geçen sıradışı anlam birlikleri ve kelime gruplarının sikligına bağlıdır. Müellifin edebi metin içinde sıradışı anlam birlikleri ve kelime grupları kullanması, metni okuyucu için daha çekici hale getirir. Bu aynı zamanda okuyucunun tasavvur dairesini genişletir, ufkunu açar ve okuyucunu aktif hale getirir. Çünkü müellif söylemek istediği şeyi herkesin kullandığı sözcükleri kullanarak açıkça söylememiştir; alışılmadık ifadelerin arkasına gizlemiştir. Onu çözmek okuyucuya kalmıştır. Böyle bir eserin okuyucusunun zihni okuma eylemi boyunca sürekli çalışır halde olmak zorundadır.

Makalenin devamında, 20. yüzyıl Özbek edebiyatı temsilcilerinden Said Ahmad, Tahir Malik ve Ötkir Haşimov'un eserlerinden sıradışı anlam birlikleri ve kelime grupları örnekleri verilmiş ve izah edilmiştir.

**Anahtar kelimeler:** lingvo-poetika, lengüistik poetika, edebi eser, kuraldisı anlam grubu, edebiyat.

### Abstract

In the introduction of the article, the relationship between literary work and language is emphasized. The most important feature that distinguishes a literary work from a normal text is its artistic language. Literature is the art of speech. Literary work, like all texts, consists of words, but the words that make up the literary work are brought together to reflect the poet or author's understanding of art and aesthetics, and the literary work is thus separated from other texts. Each literary work, to a certain extent, reflects the aesthetic level of the "language" in which it was written. The depth of meaning, artistic level and aesthetic level of the literary text depend a little on the frequency of the unusual meaning associations and word groups in it. The author's use of unusual semantic associations and word groups in the literary text makes the text more attractive to the reader. At the same time, it expands the imagination circle of the reader, opens his horizons and activates the reader. Because the

author did not clearly say what he wanted to say by using the words everyone uses; hidden behind unconventional expressions. It is up to the reader to decipher it. The mind of the reader of such a work must be constantly working throughout the act of reading.

In the continuation of the article, examples of unusual meaning associations and word groups from the works of Said Ahmad, Tahir Malik and Ötkir Hashimov, who are representatives of 20th century Uzbek literature, are given and explained.

**Key words:** linguopoetics, linguistic poetics, artistic text, unusual combinations, literatüre.

## Kirish

So‘ngi vaqtarda o‘zbek tilshunosligida so‘z san’ati vakillarining ijod mahsuli hisoblanmish badiiy asar tilini lingvopoetik xususiyatini tahlil qilish, lingvopoetik nuqtai nazardan tadqiq etishga bo‘lgan e’tibor kundan-kunga ortib bormoqda. Mana shu kabi e’tibor, qiziqishlar bois bir talay ilmiy maqolalar, dissertatsiyalar va boshqa tadqiqot ishlari yuzaga keldi.

O‘zbek tilshunosligida badiiy matn lingvopoetikasini monografik aspektida jiddiy tadqiq etgan M.Yo‘ldoshev ham o‘zining doktorlik dissertatsiyasida shunday yozadi: “Badiiy asar tilini tilning aynan estetik vazifasining namoyon bo‘lishi tarzida o‘rganuvchi sohani “lingvistik poetika” – “lingvopoetika” deb nomlash filologiya ilmida ancha turg‘unlashgan hamda “lingvistik poetika”ning filologik ilmlar tizimida alohida mustaqil fan sifatidagi o‘rnini aniqlashtirishga bag‘ishlangan ko‘pgina tadqiqotlar yaratilgan” (Yo‘ldoshev, 2009: 18).

Inson o‘zligini namoyon etishda turli rivojlanish bosqichlarida tildan foydalanishning, mayjud nutq parchalarini o‘zaro aloqaga kiritishning shunday yo‘llarini ham o‘ylab topganki, natijada badiiy nutq deb ataluvchi ajabtovur bir san’at namunasining yaratuvchisiga aylangan. Ana shunday go‘zal nutqning ko‘rinishi o‘laroq paydo bo‘lgan so‘z san’ati namunalari – maqollar, matallar, topishmog‘u ertaklar, she’rlar, qo‘shiqlar, afsonalar, asotirlar, hikoya, qissa, dramalar, romanlar va dostonlar insoniyat badiiy ijodkorining ijod mahsuli sifatida namoyon bo‘lib kelmoqda.

Adabiyot so‘z san’ati ekanligi barchaga kundek ravshan, uning birlamchi vositasi til ekanligi ham inkor etib bo‘lmas haqiqatdir. M.Yo‘ldoshev o‘zining doktorlik dissertatsiyasida buyuk marifatparvar adib Abdurauf Fitratning “Adabiyot qoidalari” nomli qo‘llanmasidagi quyidagi fikrlarni keltirib o‘tadi: “Adabiyot – fikr, tuyg‘ularimizdagi to‘lqunlarni so‘zlar, gaplar yordami bilan tasvir

qilib, boshqalarda ham xuddi shu to‘lqunlarni yaratmoqdir” (Yo‘ldoshev, 2009: 12). Yana shu o‘rinda adabiyotshunos P. Qodirovning quyidagi fikrlarini ham alohida ta’kidlaydi: “Haykallar misdan, marmardan yasaladi, binolar g‘ishtdan, oynadan, po‘latdan quriladi. Adabiy asarda misning ham, marmarning ham, po‘lat va g‘ishtning ham o‘rniga badiiy so‘z ishlataladi. Adabiy asarning muzika, rassomlik va boshqa ijod sohalaridan farqi uning ohanglar, chiziqlar, bo‘yoqlar vositasi bilan emas, so‘zlar vositasi bilan yaratilishida ko‘rinadi.” (Yo‘ldoshev, 2009: 13). Har qanday mohir quruvchi bir imorat qad rostlashi uchun kerak bo‘ladigan jamiki qurilish materiallaridan foydalanar ekan, o‘zining bor mahoratini, o‘zidagi mavjud g‘oyalarni, iste’dodini ishga solib, timmsiz mehnat qiladi va oxir oqibat o‘z mehnatining samarasini o‘laroq yuksak bir imorat bo‘y ko‘rsatadi. Xuddi shuningdek, adabiyot san’atida ham ijodkor o‘z ijod mahsulini yaratish uchun til materiallaridan shunchalik mohirona foydalanadiki, til materiallarini bir-biriga shaklan va mazmunan shunday birlashtiradiki, natijada o‘quvchi bu ijod namunasining naqadar betakror san’at asari ekaniga shohid bo‘ladi.

Badiiy matnda tilning estetik vazifasining namoyon bo‘lishi, ya’ni matn lingvopoetikasi o‘rganilar ekan, ayni vazifaning amalga oshishida ishtirot etadigan barcha til birliklari diqqat markazida bo‘lishi lozimligi tabiiy. Ammo M. Yo‘ldoshev o‘zining doktorlik dissertatsiyasida o‘rinli ko‘rsatib o‘tganidek, “...badiiy matnda barcha birliklar, vositalar aynan teng badiiy-estetik qimmatga ega bo‘lmaydi. Badiiy matnda muayyan til birliklari, til vositalari alohida, ayricha poetik qimmat kasb etadi, boshqalari esa tasvirda ishtirot etsa ham, poetik jihatdan passivroq bo‘ladi. Yaxlit badiiy matn yoki muayyan badiiy konteksga ko‘ra, muayyan til birligi estetik jihatdan birinchi planga chiqadi va qo‘srimcha, yangi badiiy ma’nolar ifodachisiga aylanadi.” (Yo‘ldoshev, 2009: 23). Har qanday badiiy asar tili badiiy matn sifatida tilning muhim vazifalaridan biri bo‘lmish estetik vazifani reallashtiradigan yaxlitlik ekanligi aksar tilshunoslar tomonidan aytildi. Bu fikr, albatta, dunyo tilshunosligiga ham, shu jumladan o‘zbek tilshunosligiga ham daxldor.

Badiiy matnni yaratishda serqirra ijodkorlar, yozuvchilar so‘zlardan, iboralardan, turli birikmalardan va sintaktik birliklardan shunday mahorat bilan foydalanadilarki, ularga qo‘srimcha ma’no yuklash orqali matn mazmundorligini oshirishga, matnni estetik jihatdan boyitishga va shu bilan birga o‘quvchida matn yuzasidan yuksak taassurot uyg‘otishga erishadilar. Bu nuqtai nazardan badiiy matnlarda ekspressiv sintaksisning muhim birligi sifatida poetik aktuallashish imkoniyati juda katta bo‘lgan sintaktik vositalardan biri g‘ayriodatiy birikmalardir. Badiiy matnda uchraydigan bunday g‘ayriodatiy birikmalar sezilarli darajada lingvopoetik qimmat kasb etadi, matn bo‘yoqdorligi va mazmundorligini ortishiga

sabab bo‘ladi, matnning semantik va badiiy strukturasini ma’lum darajada murakkablashtiradi hamda ta’sirchanligini oshiradi. Muallif badiiy matnda voqelikni tasvirlashning mayjud ko‘rinishlarini chig‘iriqdan o‘tkazadi va u har doim to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki turli usullar bilan aks ettirilayotgan voqeа-hodisaga o‘z munosabatini bildiradi. Biroq u voqeani sodda qilib aytmasdan, ongli tarzda o‘quvchiga badiiy ta’sir etish vositalarini tanlaydi. Mana shu vaziyatda muallif g‘ayriodatiy birikmalarga ehtiyoj sezadi. G‘ayriodatiy birikmalar ishtiroki natijasida estetik sug‘orilgan nutqning badiiy estetik samaralarini Abdulla Qodiriy, Abdulla Qahhor, Odil Yoqubov, Shukur Xolmirzayev, Tohir Malik, Tog‘ay Murod, Said Ahmad, O‘tkir Hoshimov, Erkin A’zam kabi ko‘plab o‘zbek yozuvchilarining asarlarida uchratish mumkin. Quyida ana shunday g‘ayriodatiy birikmalardan ayrim misollar keltiramiz.

*“Yomon ko‘zdan asrasin, bunaqa husnni xudoyim har kimga ham beravermaydi, suygan bandasiga beradi. Bu zaifona chiroy emas, mardona chiroy”, degan edi. Bugun “hasadgo‘y” taqdir shu mardona chiroyni kentik qilmoqchi bo‘ldi. Ammo eplolmadi. (S.Ahmadning “Kiprikda qolgan tong” asari (Ahmad, 2008: 17). Guvohi bo‘lganingiz keltirilgan namunadagi g‘ayriodatiy birikmalar nomi bilan tilga olinayotgan birikmalar quyidagilardir: zaifona chiroy, mardona chiroy, hasadgo‘y taqdir. Bu birikmalarни g‘ayriodatiy deya nomlashga sabab kishilarning odatiy muloqot jarayonida ularning aynan shu tarzda qo‘llanilishi odat tusiga kirmaganligi, yozuvchining so‘zlardan naqadar ustamonlik bilan foydalanish qobiliyati, shu bilan birga bu kabi birikmalarning badiiy asar mazmun-mohiyatini boyitishi, o‘quvchini albatta asarni o‘qishga bo‘lgan qiziqishini yanada orttirishi bilan ham harakterlidir. Muallifning bunday birikmani qo‘llashidan maqsadi o‘quvchiga matn tasvirini yanada jozibali qilib ko‘rsatish, o‘quvchining tasavvur doirasini kengaytirish hamda o‘quvchiga voqelikning to‘laqonli ishtirokchisiga aylana olish imkoniyatini taqdim etishdir. Berilgan namunada foydalanilgan zaifona chiroy birikmasi yozuvchi asar qahramonini ta’riflash, o‘quvchida u haqida tasavvurni kengroq shakllantirish maqsadida yuzaga kelgan. Bu orqali qahramondagi tashqi go‘zallik shunchaki yuzaki ko‘zga tashlanadigan chiroy emas, balki mardona chiroy, ya’ni g‘ururlanishga, faxrlanishga arzigulik go‘zallik egasi ekanligini ta’kidlash bilan bir qatorda uning harakteriga, mardona so‘zi orqali ishora berilgan. “Hasadgo‘y” taqdir esa undagi bu go‘zallikni ko‘ra olmayotgani, uning umriga, sog‘ligiga rahna solayotgani aks ettirilgan asarda. Taqdir so‘ziga insonlarga xos bo‘lgan o‘zgalarning yutuqlarini ko‘ra olmaslik tuyg‘usini ifodalovchi hasadgo‘y so‘zini biriktirish orqali esa asar qahramoniga nisbatan yozuvchida rahm-shafqat tuyg‘usi, taqdirga nisbatan esa nafrat tuyg‘usi hukmron ekanligi namoyon bo‘lmoqda.*

Quyida yana bir qancha shu kabi birikmalar tahlilini e'tiboringizga havola etamiz.

*To yetib borgunimizcha Namanganda havo aynib, achchiq shamol esayotgan ekan. Sovuq shu darajada ediki, biron pana joyga yashirinmasa chidab bo'lmas edi. (S.Ahmadning "Kiprikda qolgan tong" asari) (Ahmad, 2008: 39).* Bu parchadan achchiq shamol birikmasini ajratib olamiz. Bizga ma'lumki shamol so'zi tabiat hodisalaridan birini ifodalovchi so'z hisoblanadi, achchiq so'zi esa narsalarga oid bo'lgan maza-ta'mni ifoda etuvchi so'zdir. Achchiq shamol birikmasini hosil qilish orqali yozuvchi badiiy matnning o'quvchiga estetik ta'sir etish kuchini yanada oshirmoqda, ya'ni bu bilan muallif qahramonlar o'sha vaqtda duch kelgan tabiat hodisasini, shamolning kuchi qanchalik ekanligini o'quvchiga yanada aniqroq tarzda ifoda etmoqda. Shu o'rinda kuchli shamol birikmasini ishlatish ham mumkin edi, lekin muallif aynan achchiq shamol birikmasini qo'llashni afzal ko'rdi. Chunki shamoldagi odamning dimog'ini achituvchi kuchli havo oqimini keltirib chiqaruvchi xususiyati ayni o'sha damda kuchliroq ekanligini o'quvchi ko'z o'ngiga keltira olishi, yaqqol his qila olishi uchun ham xuddi shu birikma muhim ahamiyatga egadir. Ijodkorning so'zlardan qay darajada mohirona foydalana olishi ham shunda namoyon bo'ladi aslida.

Bu kabi g'ayriodatiy birikmalar asardagi mazmundorlikni hamda bo`yoq dorlikni kuchaytirish uchun ham xizmat qiladi. Shu kabi g'ayriodatiy birikmalarни yana ko'plab uchratish mumkin.

*Bu gapni eshitib Anvar "shu odam ota bo'lgan xalqning padariga la'nat!" dedi. Yonidagi hamkasblar avvaliga bu burama gapning mag'zini chaqishmadi. Keyin tushunib qolib, kulib yuborishdi. (T.Malik "Shaytanat") (Malik, 2007: 13). Kelin tagdor gapni tushunadigan beshariqliklardan edi. (S.Ahmadning "Kiprikda qolgan tong" asari) (Ahmad, 2008: 13).* Keltirilgan ushbu misollardagi burama gap hamda tagdor gap ko'rinishidagi birikmalar ham yozuvchilarining individual salohiyatlaridan kelib chiqqan holda fikrni o'zgacha ko'rinishda ifoda etish maqsadida vujudga keltirilgan. Har ikki birikma ham o'zaro ma'nosib bir-biriga yaqin birikmalar hisoblanadi, ya'ni har ikkala birikmadan ham "ostida yashirin ma'no mavjud bo'lgan gap" mazmuni anglashilmoqda.

*Tashqarida hamon terak barglari shitirlaydi. Daryo shovullaydi. Mana shu shovullagan sukunat ichida dilni titratadigan iztirobli nido yangraydi: "Ilhaq, Is-hoq!.." (O'.Hoshimov "Dunyoning ishlari" asari "Haqqush" hikoyasi)* Bu yerdagi shovullagan sukunat birikmasini tuzishda muallif zidlantirishga murojaat qilgan. Shovullamoq – "shov-shov" etgan tovush chiqarmoq; sukunat – hech qanday

tovushning yo‘qligi; jimjitlik, sokinlik kabi mazmunlarni ifodalaydi. Ko‘rinib turganidek, bu ikki so‘zning ma’nosidagi ziddiyat yaqqol namoyon bo‘lib tursada, yozuvchi bu ikki so‘zdan birikma hosil qilish barobarida ma’no jarangdorligini oshirmoqni, shu bilan birga o‘scha daqiqadagi holatni ifodalashda badiiy ta’sirchanlikka erishmoqni niyat qilgan.

### **Natija**

G‘ayriodatiy birikmalar matndagi barcha so‘zlar bilan badiiy matndagi lingvopoetik qimmati jihatidan hamisha ham teng emas, g‘ayriodatiy birikmalarning lingvopoetik qimmati sezilarli darajada ortiqdir. Yozuvchi o‘z asarida bu kabi birikmalarни har safar o‘z badiiy niyatiga muvofiq xilma-xil ma’no-mazmunlarni ifodalash uchun yangidan tuzadi. Shuning uchun ham yozuvchining badiiy mahoratini baholashda bunday g‘ayriodatiy birikmalarning lingvopoetikasi alohida ahamiyatga egadir.

### **Adabiyotlar**

- Ahmad, S. (2008). “Kiprikda qolgan tong”, *Sharq NMAK*. Toshkent.
- Hoshimov, O‘. (2019). “Dunyoning ishlari” / qissa / “Abadiy barhayot asarlar” turkumi. N. - T.: “Ilm-ziyo-zakovat”.
- Malik, T. (2007). “Shaytanat”. [www.ziyouz.com](http://www.ziyouz.com).
- Yo‘ldoshev, M. (2009). *Badiiy matnning lingvopoetik tadqiqi*. Toshkent: Fan.